

ISPAN TILI O'RGANINSHNING SAMARALI USULLARI

Murotova R.R

O'zDJTU

Xalillayev A.K

Ilmiy rahbar:F.f.f.d(PhD)

Annotatsiya: *Ispan tilini o'rganish nafaqat nuqtai nazar, balki mintaqalar o'rtasidagi muloqatni rivojlantirish imkoniyatini ham taqdim etadi. Ushbu maqolada ispan tilini o'rganish jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan samarali usullar haqida so'z yuritamiz*

Kalit so'zlar: *Ispan tili, til o'rganish, muntazamlik, texnologiyalar, interaktiv darslar, o'qish va tinglash, madaniyat, muloqot, so'z boyligi, grammatika, motivatsiya, ta'limiy resurslar, onlayn kurslar, o'zaro muloqot, amaliy mashqlar*

Bugungi kunda, bir nechta tillarni bilish odatiy holga aylanmoqda. Shuningdek, biror bir chet tilini o'qitish uning metodikasining nazariy asoslariga tayanib amaliyotga tatbiq etishga bog'liqdir. Chunki chet tillarini o'rganishda zamonaviy pedagogik metodlar va innovatsion texnologiyalarning o'rni judayam ahamiyatlidir.

Ispan tili dunyoda eng ko'p so'zlashiladigan tillardan biridir va uning o'rganilishi global ravishda katta ahamiyatga ega. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, ispan tili 500 milliondan ortiq kishiga ona tili sifatida xizmat qiladi va naqt 21 ta mamlakatda rasmy til hisoblanadi. Ispan tilini o'rganish nafaqat til kompetensiyasini rivojlantirish, balki ispan madaniyati, san'ati va tarixini chuqurroq tushunishga olib keladi. Shu sababli, zamonaviy pedagogika metodlari va psixologik yondashuvlar yordamida ispan tilini o'rganishga qiziqish ortib bormoqda.

Ispan tilini o'rganish jarayoni ko'plab muammolar va qiyinchiliklarni o'z ichiga oladi, lekin samarali usullar va strategiyalar yordamida bu jarayon sezilarli darajada soddalashtirilishi mumkin. Imkoniyatlar va muammaolarni hisobga olgan holda, talabalar va o'quvchilar uchun samarali metodlarni ishlab chiqish juda muhimdir. O'rganishning muvaffaqiyatli yondashuvlari orasida kommunikativ yondashuv, musiqa va san'atdan foydalanish, texnologik vositalar va interaktiv o'qitish metodlari mavjud. Qo'llanilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kommunikativ yondashuvlar, masalan, muloqotli darslar va rol o'ynash usullari, tilni o'rganish jarayonida talabalarni faollashtiradi va ularning amaliy qobiliyatlarini oshiradi.¹ Muntazam amaliyot, tinglash va o'qish, shuningdek, madaniyatni o'rganish orqali til ko'nikmalarini oshirishmumkinligini tasdiqlagan.

Ispan tilini o'rganishdan oldin o'z maqsadingizni aniq belgilab olish muhimdir. Bu sizga maqsadlarga yo'naltirilgan o'rganish jarayonini rejalashtirish imkonini beradi. Masalan, agar siz ispan tilini sayohat uchun o'rgansangiz, asosiy iboralar va kundalik

suhbatlarni o'rganishga e'tibor bering. Agar qorli ravishda ispan tilida professional faoliyat yuritmoqchi bo'lsangiz turli stetik va texnik sohalarni o'z ichiga olgan keng ko'lamlı lug'atni o'rganishni boshlashingiz kerak. Ispan tilini o'rganish jarayonida muntazamlık juda zarur. Tilni o'rganish jarayonida muntazam amaliyot qilish muhim ahamiyatga ega. O'rganilgan materialni doimiy ravishda qo'llash orqali talabalar tildan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantiradi.² O'qish va ishlash jarayonini kundalik hayotingizga kiritish, tilni o'zlashtirish va unutmashlik uchun muhimdir. Masalan, har kuni 30-60- daqiqa o'qish uchun vaqt ajratish, yangi so'zlarni o'rganish va grammatika qoidalarini o'zlashtirish imkoniyatini beradi. Bu jarayonda personal o'yin, kartochkalar va interaktiv darslar kabi turli o'quv vositalaridan foydalanish ham samarali bo'ladi.

Yangi tilini o'rganishda muhim jarayonlardan biri – bu muntazam ravishda tilni ishlatishdir. Murojat qilish orqali bu tilni amaliyotga tadbiq etish:

- Til aholisi bilan muloqot . Tilni o'rganuvchilarga ispan tilida gapiradigan do'stlar topish yoki online platformalarda (masalan, iTalki, Tandem) munosabat qurishga harakat qilish .
- Ispan tili guruhlariga yani mahalliy til o'rganish guruhlariga qo'shilish yoki ispan tili darslarida qatnashish .

Yuqorida ta'kidlaganimizdek xorijiy tillarni o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni sezilarli darajaga yetib bormoqda. Vaqt o'zlashtirish va o'zini ifoda etish uchun bir qancha usullarni qo'llash zarur. Har bir talabaning o'ziga xos uslublari bor.³ Kinodrammatik metodlar, audio-vizual materiallar va ochiq darslar bu kontekstdagi samarali metodlardan hisoblanadi. Mobil ilovalar, online kuslar va videodarslar foydalanuvchilarga erkinlik va qulaylik yaratmoqda. Misol qilib aytadigan bo'lsak, **Duolingo**, **Babbel** va **Busuu** kabi ilovalar interaktiv darslar, o'yinlar va testlarni taklif etadi. Ushbu ilovalar fonetika, grammatika va so'z boyligini rivojlantirishda juda samarali. Shuningdek, YouTube va podkastlarda ispan tilida ta'limiy kontentlar ko'p. Ushbu kanallar oqali real hayotiy vaziyatlarda ishlatiladigan iboralar va talaffuzni o'rganishingiz mumkin bo'ladi. Madaniy kontekstda tilni o'rganish va tuhsunishni oshirish uchun ispan tilida mashhur shoir va yozuvchilarning asarlarini tahlil qilish ham foydali. Ba'zan esa turli multfilmlar va kinolarni ko'rish ham ko'p jihatlarda masalan, eshitib tushunish, turli yangi lug'atlarga ega bo'lishga juda yaxshi yordam beradi.

Ispan tilini o'rganish jarayonida o'qish va tinglash alohida ahamiyatga ega. O'quvchilar ispan tilida eshitilgan materiallarni tinglash va o'qish orqali o'z til ko'nikmalarini kengaytirishi zarur.⁴ O'qish orqali so'z boyligingizni kengaytirsangiz va matnni tushunish qobiliyatingizni rivojlantirasiz. Har xil janrlarda jumladan, hikoyalar, maqolalar yoki romanlar o'qishni boshlash kerak. Boshlanishida yoqimli va qiziqarli matnlar tanlash tavsiya etiladi, bu o'quvchining o'qishga yanada ishtiyoqini oshiradi. Eslatma sifatida, ularni kuzatilgandan yoki tinglangandan so'ng, o'quvchi uni qanchalik

bu matnni tushungani ustida tahlil qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa turli kontekstlarda so'zlarning ma'nosini yanada yaxshiroq anglash imkonini beradi. Texnologiyalar va onlayn resurslar yordamida interaktiv darslar tashkil etish talabalarni faollashtiradi. Online platformalar, o'yinlar va mobil ilovalar orqali ispan tilini o'rganish yaxshilanadi.⁵ Yangi iboralarni o'rganish uchun turli hujjatlar va jurnallarni o'qib tahlil qilish tavsiya qilinadi. Ispan tilida kitoblarni ovozli formatda tinglash, so'zlarning talaffuzini o'rganishda katta yordam beradi.

Ispan tili bilan birga Ispaniyaga yoki ispan tilida so'zlashadigan davlatlarning madaniyati va urf-odatlarini o'rganish, tilni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu yondashuv, talabalarni tilga bog'langan madaniy kontekstga jalb qiladi.⁶ Ispan tilini o'rganayotganda ispan madaniyatini o'rganishga vaqt ajratish lozim. Ispan tilida qo'shiqlar tinglash va ularni tarjima qilish o'quvchiga lug'atni kengaytirishning va tilni o'rganishning qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Ispan tilini biluvchi shaxslar bilan til almashinuvi faoliyatida qatnashish, amaliy qobiliyatlarni mustahkamlaydi. Bu muloqot orqali nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkonini beradi.⁷ Yangi til o'rganilayotganda uni faqatgina yozish yoki o'qish bilan rivojlantirib bo'lmaydi, shuning uchun muloqot til o'rganayotgan inson uchun juda muhimdir. Internet orqali ispan tilini o'rganayotganlar uchun bir nechta platformalar mavjud. Masalan, **Tandem** yoki **HelloTalk** kabi ilovalar yordamida ispan tilida so'zlashadigan insonlar bilan muloqot qilish imkoniyatini qo'lga kiritiladi. Bu o'rganuvchiga tilni real vaqt rejimida qo'llash va yangi frazalar yo'nalishini o'zdan bilishga yordam beradi.

Ispan tilini o'rganish jarayonida sabr va motivatsiya juda muhimdir. O'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularga maqsad qo'yish va muvaffaqiyat kasb qilish motivatsiyasini yaratish oyin muxitni yaxshilaydigan eng muhim faktor hisoblanadi.⁸ Natijalar har doim darhol ko'zga tashlanmaydi, shuning uchun o'z muvaffaqiyatingizni qiymatga olish va kichik yutuqlardan zavqlanish muhim. O'z muvaffaqiyatlaringizni yozib borganingizda, kelajakda ko'proq rag'bat va ilhomlanishingiz mumkin.

Ispan tilini o'rganish jarayoni juda ko'p vaqt va sa'yi-harakatlarni talab qiladi, ammo to'g'ri usullarni qo'llagan holda muvaffaqiyatga erishish mumkin. Har bir o'quvchi o'ziga mos keladigan o'sish usullarini tanlashi zarur. Ispan tilini bilish zamonaviy dunyoda ko'proq imkoniyatlar va boshqa madaniyatlarni va odamlarni yaxshiroq anglashga yordam beradi. O'quvchi o'ziga to'g'ri yo'l topganida, o'rganish jarayoni bir vaqtning o'zida qiziqarli va foydali bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Chet tillarini o'qitishning innovatsion usullari // Xudayarova Lenina Aminbayevna 3(22), Nov., 2023 <https://doi.org/10.5281/zenodo.10198707>



2. Bygate, M. (1987). Speaking. Oxford: Oxford University Press. Creative Education, Vol.11 No.10, October 22, 2020.
3. Vocabulary in Language Teaching Norbert Schmitt University of Nottingham. Cambridge University Press, 2000.
4. Walton, G. M., & Cohen, G. L. (2011). A brief social-belonging intervention improves academic and health outcomes of minority students. *Science*, 331(6023)
5. Vandergrift, L. (2004). Listening to learn or learning to listen. Annual Review of Applied Linguistics, 24, 3-25. Open Journal of Modern Linguistics, Vol.1 No.2, December 16, 2011.
6. Godwin-Jones, R. (2018). Chasing the butterfly effect: Informal language learning online as a complex system. *Language Learning & Technology*, 22(2), 8–27.
7. https://www.researchgate.net/publication/270588465_Reasonable_Expectations_Frameworks_of_Reference_Proficiency_Levels_Educational_Standards
8. <https://www.scirp.org/reference/ReferencesPapers?ReferenceID=1690492>

